

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

**“TASDIQLAYMAN”**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
rektori O.SH.Bazarov
2024 yil

Ro'yxatga olindi № 05/03/003

“27” iyun 2024 yil

IQTISODIY TAHLIL
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100	- Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
	60410500	– Bank ishi va auditi

Qarshi 2024-yil

Fan/modul kodi Iqt.T 1510	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	Kreditlar 6/4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy tahlil (5-semestr)	90	90	180
	Iqtisodiy tahlil (6-semestr)	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - boshqaruv, moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatini, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini, moliyaviy holatini hamda ularning o'zgarishlarini, o'zgarishlarga ta'sir qilgan omillarni aniqlash, hisob-kitob qilish, baholash yo'llarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga, ularning ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyati samaradorligiga, subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga, ularning boshqaruv samaradorligiga obyektiv baho berish, faoliyatning kuchli jihatlari va zaif tomonlarini aniqlash asosida aktivlarning bugungi va kelajakdagi qiymatini oshirishda aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-Modul. Iqtisodiy tahlil nazariyasi va boshqaruv tahlili</p> <p>1-Mavzu. Iqtisodiy tahlilning predmeti, asosiy vazifalari va tamoyillari</p> <p>Tahlil - iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish usuli sifatida. Tahlil (analiz) va sintez xodisa va jarayonlarni batafsil o'rganishning asosiy yo'li ekanligi. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni samarali boshqarishda tahlilning roli. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti. Iqtisodiy tahlilning mazmuni. Iqtisodiy tahlilning ob'yekti. Iqtisodiy tahlil sub'yektlari. Sub'yektning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari. Xo'jalik sub'yekti iqtisodiy salohiyatini o'stirishda hamda mustahkamlashda iqtisodiy tahlilning ahamiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik. Moliyaviy holat. Ichki va tashqi omillar. Ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiy tahlilning maqsadi hamda vazifalari. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari. Fanlar tizimida "Iqtisodiy tahlil"ning o'rni.</p> <p>2-Mavzu. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari.</p> <p>Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tahlilda omillar tizimi hamda modellar, iqtisodiy modellarning turlari. Iqtisodiy tahlilda omillar aloqadorligi. Stoxastik va determinantlashgan modellar. Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy usullari. Taqqoslash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, mutloq va nisbiy farqlar, indeks usullarining tahlilda qo'llanilishi. Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llashning zaruriyati. Iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalariga ta'sir etuvchi omillarni baholashda integral va logarifm usullaridan foydalanish. Iqtisodiy tahlilda korrelyatsion va regression tahlil usullari. Qaror qabul qilish nazariyasi usullari. Iqtisodiy masalalarning maqbul yechimini aniqlashda matematik dasturlash, o'yin nazariyasi va nazariy xizmat ko'rsatish usullarining qo'llanilishi. Sezgirlik tahlili. Evrestik tahlil. Pul qiymatini o'stirish va diskontlash operatsiyalari. Foiz stavkalari va ularni hisoblash.</p> <p>3-Mavzu. Iqtisodiy tahlilning turlari.</p> <p>Iqtisodiy tahlilning turlari. Iqtisodiy tahlilning turlar bo'yicha tasniflanishi va uning mezonlari. Tashqi va ichki tahlil. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Tezkor (operativ), joriy (retrospektiv) va istiqbolli (perspektiv) tahlil. Ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-iqtisodiy, ekologik-</p>			

iqtisodiy tahlil. Marketing tahlili, investitsion tahlil, funksional-qiymatli tahlil, logistik tahlil, taqqoslama, omilli, ekspress, fundamental, marjinal tahlil turlari. Kompleks, tanlanma, tematik tahlil.

4-Mavzu. Tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta'minlash

Tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta'minlash. Tahlilni o'tkazish bosqichlari. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish. Tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlar va ilg'or g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etish. Tahlil uchun kerakli axborot tizimi va uning turlari. Iqtisodiy, huquqiy, texnik, ekologik va boshqa manbalar to'g'risida tushunchalar. Iqtisodiy manbalarning turlari va ularni tashkil qilishning asosiy tamoyillari (prinsiplari): haqqoniylik, umumiy bog'liqlik, tezkorlik, tejamkorlik va keraklilik tamoyillariga amal qilishlik. Tahlilning (axborot manbasiga qo'yiladigan talablar. Iqtisodiy tahlilning axborot manbasini ishonchliligini aniqlash. Iqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalarining qo'llanishi.

5-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning marketing faoliyatida tahlil

Marketing tizimida iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi va uning axborot manbalari. Marketing tahlili obyektlari. Marketing tahlili usullari. Xo'jalik yurituvchi subyektlar mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati. Tovarning bozordagi holatini baholash hamda talab elastikligi. Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi omillarning tahlili. Korxonalar tovar va baho siyosatining tahlili. Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar. Korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligi tahlili.

6-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlili

Mahsulot (ish va xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Mahsulot hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi dinamikasini tahlili. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning ahamiyati. Mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar tahlili. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili. Mahsulot (ish, xizmat) kritik hajmi hamda ishlab chiqarish leveridji tahlili. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tahlili. Mahsulot sifatining tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

7-Mavzu. Asosiy vositalar holati va ulardan samarali foydalanish tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va tahlilning vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Asosiy vositalarning tarkibi. Tuzilishi va dinamikasini tahlili. Aktiv va passiv asosiy vositalar tahlili. Asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarini tahlili. Asosiy vositalar holati va ulardan samarali foydalanish tahlili. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlikni tahlili. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Fond qaytimi va fond sig'imining tahlili. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining tahlili. Mashina va jihozlardan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishning tahlili. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

8-Mavzu. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hamda zahira holatining tahlili. Material qaytimi va material sig'imining tahlili. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida materiallardan samarali foydalanishning mahsulot tannarxini pasaytirishdagi ahamiyati.

9-Mavzu. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va mehnat unumdorligi tahlili

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Mehnat resurslari tarkibi va ularning dinamikasini tahlili. Xodimlar harakatining tahlili. Xodimlar qo'nimsizligi tahlili. Ish vaqtidan samarali foydalanish va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mehnat unumdorligi dinamikasini tahlili. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligini oshirishning mahsulot tannarxini pasaytirishdagi o'rni. Mehnat sig'imining tahlili. Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'sirining tahlili.

10-Mavzu. Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish va davr xarajatlarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati. Xarajatlarni turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, "o'zgaruvchan" va "o'zgarimas" xarajatlari tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibi va dinamikasining tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlarning iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha tahlili. Mahsulot tannarxining tahlili. Mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Davr xarajatlari tarkibi va dinamikasining tahlili. Davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

11-Mavzu. Moliyaviy va operatsion boshqaruv tizimida marjinal tahlil

Marjinal tahlilning mazmuni va ahamiyati. Qoplash marjasi tahlili. Mahsulot sotishdan foydaning marjinal tahlili metodikasi. Rentabellik ko'rsatkichlari marjinal tahlili metodikasi. Korxonalar mahsulot sotishining zararsizlik hajmi hamda xavfsizlik zonasi tahlili. Mahsulot sotishning zararsizlik hajmi hamda xavfsizlik zonasi o'zgarishiga omillar ta'siri tahlili. Mahsulot sotish bahosining kritik darajasi hamda mahsulot birligiga doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning chegaraviy miqdorlarini aniqlash. Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha qarorlarni asoslash. Kritik darajadan past bahoda qo'shimcha buyurtmalar qabul qilish bo'yicha qarorlarni tahlili baholash.

2-Modul. Moliyaviy tahlil

12-Mavzu. Buxgalteriya balansi tahlili

Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar. Balans moddalarini va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi. Korxonalar moliyaviy holati tahlili usullari. Balansni o'qish. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili. Buxgalteriya balansining vertikal (tarkibiy) tahlili. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi. Buxgalteriya balansining likvidlilik va korxonalar to'lov layoqatining tahlili.

13-Mavzu. Moliyaviy barqarorlik tahlili

Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri. Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va meyoriy barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar. Korxonaning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili. Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili. Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlari (moliyaviy mustaqillik (avtonomiya), moliyaviy qaramlik, o'z va qarz mablag'larining nisbati, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik, o'z aylanma mablag'larining to'planish koeffitsiyenti kabi) va ularning tahlili.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora tadbirlarini belgilash.

14-Mavzu. Kreditga layoqatlilik tahlili

Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kreditga layoqatlilikning tavsifi. Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va balli (skoring) baholash tizimi. Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklarining

kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari. Korxonaning ishonchligini baholash. Raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini tahlili. Daromad tahlili. Kredit resurslari maqsadlilikini tahlili. Kreditga layoqatlilikni moliyaviy koeffitsiyentlarda baholash. Kreditni ta'minlanganligini tahlili. Kredit to'lovlari yuzasidan pul oqimlarining kelajakdagi kutilishlarini baholash. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi.

15-Mavzu. Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi va tuzilishini tahlili. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili. Moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari tahlili. Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili. Budgetga to'lovlar va ajratmalarning tahlili. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

16-Mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga ta'siri. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy hajmini tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning muddatlari bo'yicha tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili. Qarzlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

17-Mavzu. Pul oqimlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ularning oqimlarini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning asosiy axborot manbalari. Xo'jalik subyektining umumiy pul mablag'lari oqimining tahlili. Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatini tahlili. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimining tahlili. Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari tahlili. Pul oqimlarini bashoratlash. Valyuta mablaglari harakatini tahlili. Pul mablag'lari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

18-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi subyektlar xususiy kapitali tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiy kapitalini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Xususiy kapitalning xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Xususiy kapitalni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tasnifi. Xususiy kapitalning tarkibi va dinamikasining tahlili. Ustav, qo'shilgan va zahira kapitallarining o'zgarishi tahlili. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni tahlili. Xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili. Moliyaviy leveridj tahlili.

19-Mavzu. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili. Iqtisodiy nochorlikni baholashning milliy va xalqaro tajribalari.

Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili. Bankrotlikni aniqlashning turli modellari. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

20-Mavzu. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati. Tahlil maksadi, mazmuni va vazifalari. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari. Korxonalar moliyaviy xolatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari. Korxonalar moliyaviy holatini va samaradorligini ifodalovchi (kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili). Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

21-Mavzu. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash

Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash va unda qo'llaniladigan turli modellar va usullarning tavsifi. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash. Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash. Bankrotlikni bashoratlash. Bashorat ko'rsatkichlariga ichki va tashqi omillar ta'siri. Bashorat ko'rsatkichlarining ehtimolligi va ishonchliligini baholash. Bashoratlashdagi kamchiliklar.

22-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati tahlili

Qimmatli qog'ozlar bozorida xo'jalik subyektlari faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari. Xo'jalik yurituvchi subyektlar qimmatli qog'ozlari tavsifi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar qimmatli qog'ozlari tarkibining tahlili. Dividend siyosatida moliyaviy tahlilning roli. Emitentlarning reyting tahlili metodikasi.

23-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion faoliyatini tahlili

Investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo'nalishlari Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish. Investitsiyani baholash usullari. Ishlab chiqarish investitsiyasining tahlili. Moliyaviy investitsiyalar tahlili. Investitsion faoliyat hajmi tahlili. Real investitsiyalar samaradorligi tahlili. Investitsion loyihalar samaradorlik (ko'rsatkichlarining sezgirlik tahlili. Moliyaviy qo'yilmalar samaradorligi tahlili. Innovatsiyalar va boshqa investitsion loyihalarning moliyalashtirish manbalari tahlili. Lizing muomalalari samaradorligi tahlili.

24-Mavzu. Xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yishning iqtisodiy va huquqiy negizlari va uni O'zbekiston Respublikasida rivojlantirish istiqbollari. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishning mazmuni va mohiyati. Eksport operatsiyalarining tahlili. Import operatsiyalarining tahlili. Eksport-import operatsiyalaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyuta kurslari o'zgarishidan natijalar tahlili. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha pul oqimlari tahlili.

III. Amaliy mashgulotlari buyicha kursatma va tavsiyalar

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashgulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi).

Amaliy mashgulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-modul. Iqtisodiy tahlil nazariyasi va boshqaruv tahlili

1. Iqtisodiy tahlilning predmeti, asosiy vazifalari va tamoyillari
2. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari
3. Iqtisodiy tahlilning turlari
4. Tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta'minlash
5. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning marketing faoliyatida tahlil
6. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlili
7. Asosiy vositalar holati va ulardan samarali foydalanish tahlili
8. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish tahlili
9. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va mehnat unumdorligi tahlili
10. Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili
11. Moliyaviy va operatsion boshqaruv tizimida marjinal tahlil

2-modul. Moliyaviy tahlil

Buxgalteriya balansi tahlili.

Moliyaviy barqarorlik tahlili.

14. Kreditga layoqatlilik tahlili
15. Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili
16. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili

17. Pul oqimlari tahlili
18. Xo'jalik yurituvchi subyektlar xususiy kapitali tahlili
19. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish
20. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish
21. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash
22. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati tahlili
23. Xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion faoliyatini tahlili
24. Xo'jalik yurituvchi subyektning tashki iqtisodiy faoliyati tahlili

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-modul. Iqtisodiy tahlil nazariyasi va boshqaruv tahlili:

1. Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv qarorlari qabul qilishda tahlilning ahamiyati.
2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi.
3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy salohiyatini o'stirishda hamda mustahkamlashda iqtisodiy tahlilning o'rni.
4. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari.
5. Fanlar tizimida "Iqtisodiy tahlil"ning o'rni.
6. Iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Iqtisodiy tahlilda omillar tizimi hamda modellar, iqtisodiy modellarning turlari.
8. Iqtisodiy tahlilda stoxastik va determinantlashgan modellarning qo'llanilishi.
9. Taqqoslash usuli va uni tahlilda qo'llanilishi.
10. O'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli hamda uni tahlilda qo'llanilishi.
11. Guruhlashtirish usuli va uni tahlilda qo'llanilishi.
12. Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llashning zaruriyati.
13. Integral usuli va uni tahlilda qo'llanilishi.
14. Korrelyatsion va regression tahlil usullari.
15. Iqtisodiy masalalarning maqbul yechimini aniqlashda matematik. Dasturlash, o'yin nazariyasi va nazariy xizmat ko'rsatish usullarining qo'llanilishi.
16. Evrestik tahlil.
17. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari.
18. Tahlil usullarini takomillashtirish masalalari.
19. Iqtisodiy tahlilni mazmuniga, davriga, obyektiga va subyektlariga ko'ra turlari.
20. Kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha, o'rganilayotgan obyektga qamrab olish darajasiga ko'ra tahlil turlari va ularning tavsifi.
21. Moliyaviy va boshqaruv tahlili.
22. Tezkor (operativ), joriy (retrospektiv) va istiqbolli (perspektiv) tahlil.
23. Marketing tahlili.
24. Investitsion tahlil.
25. Funktsional-qiyamatli tahlil.
26. Taqqoslama, omilli, ekspress, fundamental, marjinal tahlil turlari.
27. Ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-iqtisodiy, ekologik-iqtisodiy tahlil.
28. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tahlil ishlarini tashkil qilish.
29. Tahlil uchun kerakli manbalar tizimi va uning turlari.
30. Marketing tahlili usullari.
31. Tovarning bozordagi holatini baholash hamda talab elastikligi.

32. Korxonalar tovar va baho siyosatining tahlili.
33. Xo'jalik yurituvchi subyektlar mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari.
34. Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar.
35. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi dinamikasini tahlili.
36. Mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar tahlili.
37. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tahlili.
38. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili.
39. Mahsulot (ish, xizmat) kritik hajmi hamda ishlab chiqarish Beveridji tahlili.
40. Mahsulot hajmini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniklash.
41. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tahlili.
42. Sotilgan mahsulot sifatining tahlili.
43. Mahsulotni sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliyotiga tadbiiq etish.
44. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili.
45. Aktiv va passiv asosiy vositalar tahlili.
46. Asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarini tahlili.
47. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlikni tahlili.
48. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
49. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining tahlili.
50. Mashina va jihozlardan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishning tahlili.
51. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili.
52. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili.
53. Mehnat resurslari tarkibi va ularning dinamikasini tahlili.
54. Xodimlar xarakatining tahlili.
55. Ish vaqtidan samarali foydalanish va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
56. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni tahlili.
57. Ishchilarning mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili.
58. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligini oshirishning mahsulot tannarxini pasaytirishdagi ahamiyati.
59. Mahsulot hajmiga mehnat omillarining ta'sirini tahlili.
60. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etishning ahamiyati, vazifasi va axborot manbalari.
61. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va dinamikasini tahlili.
62. Ishlab chiqarish xarajatlari samaradorligining tahlili.
63. Mehnat haqi xarajatlarini tahlili.
64. Mehnat haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
65. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi davr xarajatlarini tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari.
66. Davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash.
67. Mahsulot sotishdan foydaning marjinal tahlili metodikasi.
68. Rentabellik ko'rsatkichlari marjinal tahlili metodikasi.
69. Korxonalar mahsulot sotishining zararsizlik hajmi hamda xavfsizlik zonasi tahlili.
70. Mahsulot sotish bahosining kritik darajasi hamda mahsulot birligiga doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning chegaraviy miqdorlarini aniqlash.
71. Kritik darajadan past bahoda qo'shimcha buyurtmalar qabul qilish bo'yicha qarorlarni tahliliy baholash.
- 2-modul. Moliyaviy tahlil:**
72. Moliyaviy holat tahlili uchun zaruriy axborot manbalari va ular

to'g'riligiga qo'yiladigan talablar.

73. Korxonalar moliyaviy holati tahlili usullari.

74. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

75. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

76. Buxgalteriya balansining likvidiligi va korxonalar to'lov layoqatining tahlili.

77. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini tahlili.

78. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barkorligini tahlili.

79. Moliyaviy barqarorlikni yaxshilash chora-tadbirlarini aniqlash.

80. Bank mijozining kreditga layoqatligini tahlili.

81. Korxonaning moliyaviy holati tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash.

82. Korxonalar moliyaviy va iqtisodiy holatiga umumiy baho berish.

83. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari.

84. Kreditga layoqatlikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari.

85. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi va tuzilishini tahlili.

86. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.

87. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili.

88. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili.

89. Foydaning ishlatilishini tahlili.

90. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

91. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

92. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning muddatlari bo'yicha tahlili.

93. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash yo'nalishlari.

94. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili.

95. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimining tahlili.

96. Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari tahlili.

97. Pul oqimlarini prognozlash.

98. Valyuta mablag'lari harakatini tahlili.

99. Pul mablaglari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

100. Xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili.

101. Xususiy kapitalni ko'paytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

102. Moliyaviy leveridj tahlili.

103. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili.

104. Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili.

105. Bankrotlikni aniqlashning turli modellari.

106. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari.

107. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari.

108. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari.

109. Moliyaviy holatni reyting baholash buyicha xalkaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

	<p>110 Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash va unda qo'llaniladigan turli modellar.</p> <p>111 Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash.</p> <p>112 Daromadlar va harajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannannarxi, operatsion daromad va xarajalar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash.</p> <p>113 Pul mablag'lari naqdligini bashoratlash.</p> <p>114 Bankrotlikni bashoratlash.</p> <p>115 Bashorat ko'rsatkichlarining ehtimolligi va ishonchligini baholash.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning xo'jalik-moliya-tijorat faoliyati uzluksizligi, iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning samarasi, natijasi haqidagi, aktivlarning doiraviy aylanuvchanligini ta'minlashda axborotlar oqimini shakllantirish, axborotlarni qayta ishlash va tahliliy xulosalarni shakllantirish, iqtisodiy tahlilning zaruriy va muhim jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi (bilim);</p> <p>xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilishning asosiy (tamoyillarini; iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy hamda iqtisodiy-matematik usullarini xo'jalik subyektlarida tahlil ishlarini tashkil qilishni, tahlil uchun kerakli manbalarni to'plash va ulardan foydalana olishni bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma);</p> <p>xo'jalik yurituvchi subyektlarda tahlil ishlarini tashkil etish, iqtisodiy tahlil uchun zarur axborotni yig'ish, xo'jalik subyektlarida mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish va unga baho berish, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish hajmlarini tahlil qilish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik va (ulardan samarali foydalanish holatiga baho berish, mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlarini tahlil qilish, subyektlar moliyaviy va iqtisodiy holatiga aniq baho berish, moliyaviy natijalar va ularga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash va tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy holatini tahlil qilish asosida moliyaviy, boshqaruv va investitsion qarorlar qabul qilish uchun zarur xulosalar ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).</p>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>ma'ruzalar;</p> <p>interfaol keys-stadilar;</p> <p>seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</p> <p>guruhlarda ishlash;</p> <p>taqdimotlarni qilish;</p> <p>individual loyihalar;</p> <p>jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish talab qilinadi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Мельник М.В., Поздеев В.Л. Экономический анализ: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. -2 6 1 с.</p> <p>2. Pardayev M.K. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2020. - 588 b.</p> <p>3. Raximov M.Y., Qalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod- Moliya, 2019. - 736 b.</p>

	<p>4. Xasanov B.A., Raximov M.Y., Muqumov Z.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. - T.: IQTISODIYOT, 2020. - 736 b.</p> <p>5. Raximov M.Y., Mavlonov N.N., Qalandarova N.N. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2020. - 517 b.</p> <p>6. Jumayeva G.J. Iqtisodiy tahlil va audit. O'quv qo'llanma. - Q.: "Intellekt", 2021. - 337 b.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-461 1-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.</p> <p>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.</p> <p>8. Pardayev M.K., Abdulkarimov I.T., Pulatov M.E., Usmanova D.K. Finansoviy analiz predpriyatiy. Uchebnoye polsobiye no opite RF i RUz. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2020. - 768 bet.</p> <p>9. Мельник М.В., Поздеев В.И. Теория экономического анализа: Учебник. Москва: Юрайт, 2020. -261 с.</p> <p>10. Шадрина Г.В. Теория экономического анализа: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. -208 с.</p> <p>11. Сагдиллаева З.А., Юлдашева У.А., Алимов Б.Б. Финансовый анализ. Учебник -Т.: Иктисод-Молия, 2019. - 444 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>12. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>13. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>14. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.</p> <p>15. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.</p> <p>16. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.</p>
7.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Jumayeva G.J. –"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida professor v.b., i.f.n.</p>
9.	<p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>Ergasheva Z.E.–Qarshi shahar "Audit-hisob markazi" MCHJ shakldagi auditorlik tashkiloti raisi</p> <p>Djalilov R.H. – QarMII "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD).</p>